MAVZU: PEDAGOGIKADA BARKAMOL MUSTAQIL FIKR YURITADIGAN SHAXSNI SHAKLLANTIRISH TARBIYANING MAQSADI SIFATIDA.

Raimberdiyev Asqarjon Asrorovich
Qarshi Davlat Universiteti dotsenti,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Email: asqarasrorovich44@gmail.com

Suvonova Ma’mura Yusupovna
Qarshi Davlat Universiteti o‘qituvchisi
ORCID:https://orcid.org/0009-0007-8269-1931
Email: suvonova8100@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.20063092

ANNOTATSIYA: Barkamol inson - bu o‘zida ma’naviy-axloqiy xislatlar majmuini mujassamlashtirgan, jamiyatda o‘zligini va o‘z qobiliyatini har tomonlama namoyon eta oladigan, ma’rifatli, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan aqlan yetuk, yuksak iste’dod va salohiyatga ega bo‘lgan, jismoniy sog‘lom, erkin, ijodkor shaxs. Barkamol insonlarni shakllantirishda tarbiya hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tarbiya ijtimoiy tarixiy tajribalarni egallash uchun kishilar faoliyatini tashkil etishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

KALIT SO‘ZLAR: Pedagogika, ma’naviyat, erkin shaxs,tarbiya, ta’lim-tarbiya, jamiyat, yoshlar tarbiyasi, shaxsni shakllantirish, taraqqiyot bosqichlari, bilim, ko‘nikma, malaka, yuksak ma’naviyat, dunyoqarashni shakllantirish, tarbiya g‘oyalari, tarbiya maqsadi, har tomonlama barkamol shaxs, komil inson, tarbiyaning tarkibiy qismlari, aqliy, axloqiy, ekologik, badiiy, huquqiy, mehnat, estetik tarbiY.

Mustaqil O‘zbekiston davlatining buyuk kelajagi erkin fuqarolik jamiyatini ma’naviy barkamol jismoniy sog‘lom insonlargina barpo eta oladi. Shu sababli hozirgi kunda jamiyatimizda sog‘lom avlodni tarbiyalash, odamlarda yuksak ma’naviyatni dunyoqarashni shakllantirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yuksak darajada ko‘tarish orqali barkamol insonlarni voyaga yetkazishga katta e’tibor bermoqda.

Demokratik davlat, insonparvar fuqarolik jamiyatida tarbiyaning maqsadi har tomonlama uyg‘un rivojlangan shaxsni shakllantirishdir. Shaxsni har tomonlama kamolga yetkazish g‘oyasi umumbashariy qadriyatlardan biri hisoblanadi.

Ta’lim tarbiyaning maqsadi obyektiv xarakterga ega. U har bir jamiyatning modiy-ma’naviy ehtiyojlaridan hosil bo‘ladi. Ijtimoiy buyurtma sifatida davlat hujjatlarida ifodalanadi. Pedagogik tizimning barcha qismlari ta’limning maqsadini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shaxs shakllantirish maqsadi ta’limning mazmunini belgilaydi.

Inson faoliyati maqsadsiz bo‘lmaydi. Har qanday faoliyat ham ma’lum maqsadga qaratilgan bo‘ladi. Maqsad bu - qilinadigan ishning pirovard natijasi. Tarbiya ham faoliyat.

Tarbiyaning maqsadini tarbiyachi belgilamaydi. U obyektiv xarakterga ega. Tarbiya maqsadi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzumi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Tarbiyaning maqsadi, ijtimoiy tuzumga jamiyat talablariga bog‘liq bo‘lib, shu jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlari talablaridan kelib chiqadi. Tarbiya maqsadi jamiyat taraqqiyoti talablarini o‘zida aks ettiradi va davlatning ta’lim tarbiyaga oid ma’lum hujjatlarida bayon etib beriladi.

Tarbiyaning asosiy vazifasi shaxsning aqliy, axloqiy erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi uning qobiliyatlari har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Tarbiyaning tarkibiy qismlari quyidagilar: aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, iqtisodiy tarbiya,

huquqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, ekologik tarbiya, estetik tarbiY. Tarbiyaning vazifasi shaxs tomonidan milliy va umuminsoniy madaniyat, qadriyatlarning o‘zlashtirilishiga erishishdir. Shaxsda madaniyat asoslarini shakllantirish zamonoviy tarbiyaning mazmunini tashkil etadi. Shaxs madaniyatining asosiy jihatlari quyidagilar: siyosiy madaniyat, huquqiy madaniyat, iqtisodiy va mehnat madaniyati; aqliy, axloqiy, ekologik, badiiy, jismoniy madaniyat, muloqot madaniyati va oilaviy munosabatlar madaniyati.

Yoshlarni yuksak madaniyatni egallash milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, iymon e’tiqodli bo‘lish, ishbilarmonlik, raqobatdan qo‘rqmaslik ruhida tarbiyalash davr talabidir.

Aqliy tarbiya- barkamol inson tarbiyasining yetakchi tarkibiy qismidir. Aqliy tarbiya o‘quvchi yoshlarni tabiat, jamiyat va inson tafakkuri haqidagi ilmiy bilimlarni, fan asoslarini egallab olishlarini, ularda ilmiy dunyoqarash, mustaqil fikrlashni, tafakkur va nutq qobiliyatlarini o‘stirishni maqsad qilib qo‘yadi.

Axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalari, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida axloqiy ongni, axloqiy his-tuyg‘uni, shaxsning xulqi va irodaviy sifatlarini shakllantirishdir.

Ekologik tarbiyaning asosiy vazifalari, o‘quvchi-yoshlarni tevarak-atrofdagi muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishga o‘rgatish, insonga, hayvonlarga munosabatni tarbiyalash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi tushunchalarni berish.

Estetik tarbiyaning asosiy vazifalari, o‘quvchi-talabalarda estetik ehtiyojlarni tarbiyalash, idrok va his-tuyg‘uni, estetik tushuncha, estetik did, baholash va fikrlash, badiiy va musiqaviy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Tarbiyaning vazifalari keng va ko‘p qirralidir. Ta’limning asosiy vazifasi o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish bo‘lsa, tarbiya esa yosh avlodni jamiyatimizda qabul qilingan odob-axloq qoidalariga mos keladigan e’tiqod, axloqiy malaka va ko‘nikmalarni, ehtiyoj va intilishlarni tarkib toptirishdan iborat. Pedagogik jarayonda, agar tarbiya ta’limdan oldin yursagina yaxshi samaralar beradi. Tarbiya ta’limga nisbatan ustivor bo‘lishi kerak.

Hozirgi kunda tarbiya jarayonida yoshlarda o‘zbek xalqiga xos ma’naviy-axloqiy sifatlarni ayniqsa, iymon-e’tiqod, yangicha dunyoqarash, Vatanga muhabbat, unga fidoyilik, vatanparvarlik, boshqa millat kishilariga hurmat, insonparvarlik, mehr-muruvvat, sharm-hayo, mehnatsevarlik, mehmondo‘stlik kabi fazilatlarni tarbiyalash ta’lim maskanlari jamoalarining, o‘quvchi-murabbiylarimizning muhim vazifasidir.

Mamlakatimizda sog‘lom avlod harakatining keng tus olganligi kadrlar tayyorlash dasturida ta’lim tarbiya tizimining tubdan isloh qilinganligi ham ana shu ulug‘vor maqsad ya’ni komil insonlarni tarbiyalash yo‘lidagi muhim qadamlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. R. Mavlonova., O. To‘rayeva. Pedagogika. Toshkent “O‘qituvchi”. 2001 y.
2. A. Zunnunov. Pedagogika nazariyasi (o‘quv qo‘llanma). Toshkent. 2006 y.
3. G‘aybullayev N.R. va boshqalar. Pedagogika (Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma). Toshkent. 2005 y.